TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

HAYDAROV ELSHOD DILSHOD O‘G‘LI

ELEKTRON POCHTA XABARLARINI FILTRLASH VA SPAM XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2023

UDK: 004.056.57.

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

HAYDAROV ELSHOD DILSHOD O‘G‘LI

ELEKTRON POCHTA XABARLARINI FILTRLASH VA SPAM XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2023

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3425 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xamdamov Rustam Xamdamovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kerimov Kamil Fikratovich** texnika fanlari doktori, dotsent
	Nasrullayev Nurbek Baxtiyorovich texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**«UNICON.UZ» - fan – texnika va marketing tadqiqotlar markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ da tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi.)

B.SH. Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

E.SH. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

S.K. Ganiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyodagi barcha mamlakatlar tomonidan tan olingan yagona elektron xat almashish tizimi bu elektron pochta hisoblanadi. Shuning uchun ham elektron pochtaga qaratilgan hujumlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Bu hujumlarni asosiy tashkil etuvchilari spam xabarlardir. Kaspersky kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilning birinchi choragida davlat tashkilotlariga bo‘lgan noma’lum qo‘ng‘iroqlar va spam xabarlar soni barcha kiruvchi qo‘ng‘iroqlar va xabarlarning 70% ni tashkil etgan. Bu yo‘nalishda xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, Xitoy va boshqa davlatlarda elektron pochta xabarlarini filtrlash va ulardan spam xabarlarni aniqlab olish usullari va algoritmlarini ishlab chiqish hamda korxonaning elektron pochta serverini himoyalash tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlashning usul va algoritmlarini takomillashtirishga hamda intellektual usullar yordamida spam xabarlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan ro‘yxatga va lingvistikaga asoslangan spam xabarlarni aniqlash usullarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shu bilan birga, elektron pochta xabarlarini filtrlash jarayonida yangi xabarlar to‘g‘risidagi bilimlar to‘liq bo‘lmaganda yoki spam xabarlarning joriy ma’lumotlar bazasida noaniqliklar bilan bir qatorda, spam xabarlar signaturasi mavjud bo‘lmaganda elektron pochtani himoyalash uchun intellektual usullardan foydalanib, himoya mexanizmini ishlab chiqish zarur bo‘lmoqda.

Respublikamizda davlat va xo‘jalik boshqaruv organlarida elektron pochta xabarlarini filtrlash va ulardan spam xabarlarni aniqlab olishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, jumladan «... «UZ» domen zonasi Internet-makonining kiberxavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini hamda elektron hukumat, energetika, raqamli iqtisodiyot tizimlarini va muhim axborot infratuzilmasiga taalluqli boshqa yo‘nalishlarni himoya qilish bo‘yicha kompleks vazifalarni belgilash» rejalashtirilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, elektron pochtadagi xabarlarni filtrlash hamda ulardan spam xabarlarni aniqlab olishning intellektual usullarini qo‘llash va elektron pochtani himoyalashda zamonaviy tizimlardan foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4024-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2019-yil 14-sentabrdagi PQ-4452-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Elektron pochta xavfsizligini ta’minlashda xabarlarni filtrlash, tayanch vektorlar usuli va shunga o‘xshash intellektual usullarni qo‘llagan holda spam xabarlarni aniqlash uchun ishlab chiqilgan usullar va algoritmlarni axborot xavfsizligini ta’minlashda qo‘llash bo‘yicha E.Dada, J.Bassi, T.S. Guzella, V. Zorkadis, K. Tretyakov, Vaughan-Nikols, A.Kumari va boshqa chet ellik olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Elektron pochta xavfsizligini ta’minlashda tayanch vektorlarni qo‘llagan holda S. Lin, Y. Zhou, K. Yang, L.Chen, R.Krestel ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bundan tashqari, Kaspersky, ESET, AGAVA SpamProtexx va Trend Micro tashkilotlari tomonidan intellektual usullarni qo‘llash orqali elektron pochta xabarlarini filtrlash va ulardan spam xabarlarni aniqlashning dasturiy-apparat vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha muxandislik-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekistonda akademik T.F.Bekmuratov tomonidan elektron pochta xabarlarini filtrlash va ulardan spam xabarlarni aniqlashning usul va algoritmlari ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan va hozirda S.K.Ganiyev, R.X.Xamdamov, M.M.Karimovlar boshchiligidagi ilmiy jamoalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, tayanch vektorlar, neyron tarmoq, mashinali o‘qitish (machine learning) va chuqur o‘qitish (deep learning) asosida spam xabarlarni aniqlash, bartaraf etish usullari va algoritmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 598661-EPP-1-2018-1-RO-EPPKA2-CBHE-JP «Developing Services for Individuals with Disabilities» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi elektron pochtani himoyalash tizimining samaradorligini oshirishga imkon beruvchi spam xabarlarni aniqlash usul va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elektron pochta xabarlarini filtrlash usullarini qiyosiy tahlil qilish va filtrlashda zarur bo‘lgan mezonlarni tanlash;

filtrlash tizimining bilimlar bazasini to‘ldirish algoritmini ishlab chiqish;

elektron pochtadagi hujjatlarni filtrlash algoritmini ishlab chiqish;

spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektor usuli va algoritmini ishlab chiqish;

logistik regressiya asosida spam hujjatlarni aniqlash algoritmini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida elektron pochtadagi spam xabarlar olingan.

Tadqiqotning predmetini elektron pochtani filtrlash va spam xabarlarni aniqlash usul va algoritmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida elektron pochtani filtrlash va spam xabarlarni aniqlash usullari, neyron tarmoqlar, mashinali o‘qitish, ehtimollik nazariyasi, diskret matematika va obyektga yo‘naltirilgan dasturlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

barcha turdagi spam xabarlari uchun umumiy bo‘lgan belgilarni ajratib olish natijasida keng imkoniyatli va ko‘p xususiyatli elektron pochta xabarlari uchun umumiy bo‘lgan mezonlar shakllantirilgan;

tashkilotdagi mavjud bilimlar bazasidagi bilimlardan foydalanish chastotasini hisobga olgan holda eng ko‘p foydalaniladigan bilimlar guruhi shaklantirilgan, natijada real vaqt rejimida yangi turdagi spam xabarlarni aniqlash imkonini beradigan bilimlar bazasini to‘ldirish algoritmi ishlab chiqilgan;

elektron pochtadagi hujjat turlarini hisobga olgan holda ushbu hujjatlar orasidan fayl kengaytmasi asosida ko‘p darajali bilimlar bazasi shakllantirilgan, natijada spam xabarlarni aniqlash tizimining ko‘p darajali bilimlar bazasi yordamida uch bosqichdan iborat elektron pochtadagi hujjatlarni filtrlash algoritmi ishlab chiqilgan;

o‘quv tanlanma bilan o‘qitish usuliga asoslangan holda spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektor usuli va algoritmi ishlab chiqilgan;

logistik regressiya usulini moslashuvchan tasodifiy qidiruv usuli bilan umumlashtirgan holda xabarlar orasidan eng ko‘p spam xabar bo‘lish ehtimolligini topish orqali spam hujjatlarni aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

elektron pochta xabarlarini filtrlash usullari asosida spam xabarlarni aniqlashning dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

o‘quv tanlanma bilan o‘qitish asosida spam xabarlarni aniqlashning tayanch vektor usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tashkilot elektron pochtasini filtrlash, bilimlar bazasini to‘ldirish, spam xabarlarni aniqlash usullaridan turli sharoitlarda olingan real hamda tajribaviy tahlil natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan yangi turdagi spam xabarlarni aniqlash imkonini beradigan bilimlar bazasini to‘ldirish algoritmi, uch bosqichdan iborat elektron pochtadagi hujjatlarni filtrlash algoritmi va spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektor usuli va algoritmi hamda spam hujjatlarni aniqlash algoritmi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan usullar va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vositaning tashkilotdagi elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlash jarayonini samaradorligini ortishiga ko‘maklashishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlash algoritmlari hamda dasturiy vositalari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlash algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita «Kiberxavfsizlik markazi» davlat unitar korxonasining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022-yil 12-oktabrdagi 33-8/6761-son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasi korporativ tarmoqdagi 4673 ta elektron pochta xabarlarini filtrlab, ulardagi 1364 ta spam xabardan 1327 tasini 97.3% aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini bergan;

elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlash algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita «UZINFOCOM Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator» ma’suliyati cheklangan jamiyatining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022-yil 12-oktabrdagi 33-8/6761-son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida tashkilotning lokal tarmog‘idagi 3624 ta elektron pochta xabarlarini samarali filtrlab, ulardagi 1465 ta spam xabardan 1431 tasini 97.6% aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini bergan;

elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlash algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita «ASR KABEL» ma’suliyati cheklangan jamiyatining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022-yil 12-oktabrdagi 33-8/6761-son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida korporativ tarmoqdagi 2526 ta elektron pochta xabarlarini samarali filtrlab, ulardagi 1280 ta spam xabardan 1248 tasini 97.5% aniqlik qayd etgan holda aniqlab ularni muvaffaqiyatli bloklash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, shulardan, 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab

berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlash muammolari»** deb nomlangan birinchi bobida elektron pochta xabarlarini filtrlash usullari va ularning qiyosiy tahlili hamda elektron pochta xabarlarini filtrlashda zarur bo‘lgan mezonlarni tanlash va elektron pochta xabarlaridan spam xabarlarni aniqlab olishdagi muammolar hamda ularni yechimlari bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Birinchi paragrafda elektron pochta xizmatlari turlari, spam xabarlarning ko‘rinishlari, elektron pochtani filtrlash usullarini turli xususiyatlar, parametrlar va muhitlar bo‘yicha qiyosiy tahlili amalga oshirilgan va keng imkoniyatli va ko‘p xususiyatli ekanligini hisobga olgan holda qulayligi, universalligi, amalga oshirilishi, to‘planuvchanligi, vaqt sarfi, takrorlanmasligi va aniqligi bo‘yicha tayanch vektorlar usulining samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan.

Ikkinchi paragrafda spam xabarlarining barcha ko‘rinishlari uchun umumiy bo‘lgan, ya’ni spam xabarni qaysidir bir ko‘rinishida mavjud boshqa bir turi uchun mavjud bo‘lmagan yoki spam xabar turlari, ularning kelib chiqishi va tarqalishi hamda ularni aniqlashdagi zarur omillarni hisobga olgan holda filtrlash tizimining ortiqcha yuklanishlar soni oshib ketmasligini ta’minlash va yuqori samaradorlikga erishish uchun kerakli mezonlar tanlab olingan. Shuningdek spam omillari va ularni antispam usullari bilan o‘zaro bog‘liqligi keltirilgan.

Uchinchi paragrafda elektron pochta xizmatida filtrlash tizimini amalga oshirish bosqichlari va elektron pochta xabarlarni filtrlash va ulardan spam xabarlarni aniqlab olishning amaldagi tizimlaridagi mavjud kamchiliklar va filtrlash jarayonidagi muammolar aniqlangan, DNS yozuvlarini tekshirish va domenlarni diagnostika qilish uchun ishlab chiqilgan himoya mexanizmlari, spamga qarshi kurashish bo‘yicha ishlab chiqilgan qoidalar keltirilgan hamda ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiyaning **«Elektron pochta tizimining bilimlar bazasini to‘ldirish va hujjatlarni filtrlash algoritmlari»** deb nomlangan ikkinchi bobida elektron pochta xabarlaridagi spam xabarlarni filtrlash iyerarxiyasi hamda ushbu iyerarxiyaga mos holda elektron pochta xabarlarini filtrlash tizimining bilimlar bazasini to‘ldirish va elektron pochtadagi hujjatlarni filtrlash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* tashkilotning axborot kanali orqali keladigan barcha axborotni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va saqlash xizmatlarini amalga oshiruvchi tizim va shu tizimning aloqa kanali orqali kirib kelgan barcha elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlab olish hamda tizimga kiruvchi va chiquvchi xabarlarni guruhlarga ajratgan holda ishlash imkonini beradigan elektron pochta xabarlaridagi spam xabarlarni filtrlash iyerarxiyasi taklif etilgan.

Ikkinchi paragrafda tashkilotdagi mavjud bilimlar bazasini taqsimlash orqali yangi turdagi spam xabarlarni aniqlash imkonini beradigan bilimlar bazasiga yangi bilimlarni real vaqt rejimida qo‘shish, ya’ni bilimlar bazasini to‘ldirish algoritmi

ishlab chiqilgan. Bilimlar bazasida bilimlar soni keskin ortib ketgan holda yuborilgan so‘rovlarga javob qaytarish vaqti ortadi. Bu muammoni oldini olish maqsadida spam xabarlarni aniqlash tizimining ko‘p darajali tizimini bilimlar bazasining iyerarxiyasi shakllantirilgan. 1, 2, 3 formulalarda bilimlar bazasiga yangi bilimlarni qo‘shish keltirilgan.



1-rasm. Spam filtrlarni tarmoqni turli tugunlarida iyerarxik joylashgan tizimlaridagi axborot oqimi

$$B_1 = b_{11} \cup b_{12} \cup \ldots \cup b_{1n} = \cup_{k=1}^{n} b_{1k} \quad (1)$$

$$B_B = B_1 \cap B_2 \cap \ldots \cap B_p = \cap_{k=1}^{p} B_k \quad (2)$$

$$B_B = (b_{11} \cup b_{12} \cup \ldots \cup b_{1n}) \cap (b_{21} \cup b_{22} \cup \ldots \cup b_{2m}) \cap \ldots \cap (b_{p1} \cup b_{p2} \cup \ldots \cup b_{po}) = \cap_{k=1}^{p} \left(\cup_{j=1, j \neq k}^{r} b_{k,j} \right) \quad (3)$$

2-rasmda spam xabarlarni aniqlash ko‘p darajali tizimining bilimlar bazasini shakllantirish iyerarxiyasi keltirilgan.

Uchinchi paragrafda spam xabarlarni aniqlash tizimining ko‘p darajali tizimini bilimlar bazasi iyerarxiyasiga mos holda elektron pochtadagi hujjatlarni filtrlash algoritmi ishlab chiqilgan (3-rasm). Buning natijasida spam xabarlarni filtrlash tizimi elektron xabarni spam xabarga tegishli ekanlik holatini yakuniy ehtimolligini guruhga ajratgan holda baholash imkonini beradi. XOB<0,5 0,5<=XOB<= 0,9 XOB> 0,9.

Dissertatsiya ishining «**Spam xabarlarni aniqlashning intellektual usul va algoritmlari**» nomli uchinchi bobida mashinali o‘qitishga asoslangan spam xabarlarni aniqlash sxemasi, spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektorlar usul va algoritmi hamda logistik regressiya asosida spam hujjatlarni aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan.



2-rasm. Spam xabarlarni aniqlash ko‘p darajali tizimining bilimlar bazasini shakllantirish iyerarxiyasi

Birinchi paragrafda amaldagi mavjud usullar asosida spam xabarlarni aniqlashda foydalaniladigan neyron tarmoqning kirish parametrlariga statistik bo‘lgan va statistik bo‘lmagan belgilarni kiritish orqali elektron pochta xabarlarini tasniflash taklif qilingan. Ushbu tasniflashga mos holda elektron pochta xabarlarini filtrlashning intellektual tizimi va mashinali o‘qitishga asoslangan spam xabarlarni aniqlash sxemasi shakllantirilgan (4-rasm).

Elektron pochta xabarlarini filtrlashning neyron tarmog‘ining samarali modelini (neyron tarmoq turini) to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasida bilimlarni aniqlash texnologiyasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi:

1. Elektron pochta xabarlarining dastlabki ma’lumotlarini, shu jumladan spam va spam bo‘lmagan elektron pochta xabarlarining namunalarini olish;

2. Dastlabki ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash va neyron tarmoqni o‘qitish uchun o‘quv namunasini shakllantirish;

3. Neyron tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish: har bir qatlamda kirishlar, chiqishlar, tarmoq qatlamlari va neyronlarning sonini belgilash;

4. Spam xabarlarni filtrlash modelini yaratish uchun neyron tarmoqni o‘rgatish;

5. Spam xabarlarni filtrlashning neyron tarmoqli modelini sinab ko‘rish va baholash.



3-rasm. Hujjatlarni filtrlash algoritmining blok sxemasi

Ikkinchi paragrafda spam xabarlarni aniqlashning tayanch vektorlar usuli yordamida o‘quv tanlanma bilan o‘qitish, ya’ni har bir kategoriya uchun qaysi kategoriyada ekanligi oldindan ma’lum bo‘lgan namunalar hisobga olingan holda o‘qitish va hujjatlarni aniqlangan tavsifi asosida induktiv tarzda o‘qitish natijasida klassifikator yordamida ikki toifaga ajratib olish imkonini beradigan spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektorlar usuli va algoritmi ishlab chiqilgan(5-rasm).

Elektron pochtaning ixtiyoriy x xabari(spam yoki ham)ni n-o‘lchovli belgilar tizimi (vektori) yordamida ifodalaniladi:

$$x=(x^1,x^2,\dots,x^n). \quad (4)$$

Elektron pochtaning ikki sinf xabarlari(spam yoki ham)ni quyidagi *n*-o‘lchovli belgilar tizimi bilan ifodalangan obyektlar (xabarlar) to‘plami ko‘rinishida ifodalab olinadi:

$$x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \ldots, x_{pi}^n), \quad p = 1, 2, \ldots, m; \; i = 1, 2, \ldots, k_p \tag{5}$$



4-rasm. Elektron pochta xabarlarini filtrlashning intellektual tizimi

bu yerda x_{pi}^j – *r*-sinfdagi *i*-obyektga tegishli *j*-belgining son qiymati, *m*-berilgan sinflar soni, k_p – *r*-sinfdagi obyektlar soni.

$$x_i = \begin{cases} \text{spam}, & agar \quad \sum_{j=1}^{6} x_i^j \geq b_q \; yoki \; (x_i^7 > 0.06 \; yoki \; x_i^8 > 0.03\;) \\ \text{ham}, & boshqa \; hollarda \end{cases} \tag{6}$$

Klassifikator sifatida tayanch vektorlar usulida ikkala sinfni optimal tarzda R^n fazoda ajratuvchi gipertekislikning

$$\omega_1 x_1 + \omega_2 x_2 + \cdots + \omega_n x_n + \omega_0 = 0 \tag{7}$$

(7) tenglamasini topish hisoblanadi. *x* obyektining *F* funksiyasini *Y* sinf yorlig‘iga aylantirishning umumiy ko‘rinishi:

$$F(x) = sign(\omega^T x - b). \tag{8}$$

Bu yerda

$$\omega = (\omega_1, \omega_2, \ldots, \omega_n), \quad b = -\omega_0 \tag{9}$$

belgilashlar kiritilgan. ω va b o‘qitish algoritm vazn koeffitsiyentlari (noma’lum parametrlari) sozlangandan so‘ng, qurilgan gipertekislikning bir tomoniga tushgan barcha obyektlar birinchi sinf, ikkinchi tomoniga tushgan obyektlar esa ikkinchi sinf sifatida belgilanadi.



5-rasm. Spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektorlar algoritmining blok sxemasi

Uchinchi paragrafda logistik regressiya usulini L.A.Rastriginning moslashuvchan tasodifiy qidiruv usuli bilan qo‘llanilgan holda xabar xususiyatlari ichidan eng ko‘p spam bo‘lish ehtimolligini topish orqali tasniflash vazifasini yechish ishonchliligini va spam xabarni aniqlash tizimining tezligini oshirish imkoniga ega bo‘lingan.

Logistik regressiya (LR) modeli:

$$f_{w,b}(x) = \frac{1}{1+e^{(wx-b)}} \tag{10}$$

uchun optimizatsiyalash, ya’ni maksimallashtirish kriteriyasini quyidagi ko‘rinishda yozib olinadi:

$$q(w,b) = \sum_{i=1}^{N} [y_i \ln f_{wb}(x_i) + (1-y_i)\ln(1-f_{wb}(x_i))] \rightarrow \underset{w,b}{max} =>$$

$$(w*, b*) \tag{11}$$

Bu yerda

$$y_i = \begin{cases} 1, & i = 1,2,\dots,N_1 \\ 0, & i = N_1+1,\dots,N \end{cases} \tag{12}$$

(10),(12) shartlardan foydalanib, (11) optimallashtirish kriteriyasini quyidagi ko‘rinishda yozib olish mumkin:

$$q(w) = \sum_{i=1}^{N} \ln\left(1 + e^{\sum_{j=0}^{n} w_j x_i^j}\right) - \sum_{i=N_1+1}^{N} \sum_{j=0}^{n} w_j x_i^j \tag{13}$$

Bu yerda

$\sum_{j=0}^{n} w_j\, x_i^j = wx_i + b, i = 1,2,\dots,N;\ x_i^0 = 1,\ w_0 = \text{b}.$

Logistik regressiya modelining mohiyatini hisobga olgan holda optimallashtirish muammosi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$q(w) \rightarrow \underset{w}{max} =>\ w^*, \tag{14}$$

$$f_w(x) = \frac{1}{1+e^{-\sum_{j=0}^{n} w_j x_i^j}} \geq \frac{1}{2},\ i = 1,2,\dots,N_1 \tag{15}$$

$$f_w(x) = \frac{1}{1+e^{-\sum_{j=0}^{n} w_j x_i^j}} < 1/2, \quad i = N_1+1,\dots,N \tag{16}$$

Bu yerda $w = (w_0, w_1, w_2, \dots, w_n)$.

Hosil bo‘lgan (14)-(16) optimallashtirish masalasini stoxastik tasodifiy qidiruv usullarining asoschisi L.A.Rastrigin tomonidan taklif etilgan moslashuvchan (adaptiv) tasodifiy qidiruv usulidan foydalanib yechish maqsadga muvofiq.

Moslashuvchan tasodifiy qidiruv usuli. Umumiy holda quyidagi optimallashtirish masalasi qo‘yilgan bo‘lsin

$$q(\omega) \rightarrow max => \omega^*, \tag{17}$$
$$\omega \in D$$

bu yerda *q(ω)* – umumiy holda nochiziqli ko‘p o‘zgaruvchili funksiya,

$\omega = (\omega_1, \omega_2, \dots, \omega_n)$,

$\omega^* = (\omega_1^*, \omega_2^*, \dots, \omega_n^*)$ – (17) masalaning yechimi.

D – optimallashtirish masalasining aniqlanish sohasi, odatda tenglik va tengsizliklar ko‘rinishida berilishi mumkin.

Moslashuvchan tasodifiy qidiruv usulida quyidagi rekkurent formuladan foydalaniladi:

$$\omega^{k+1} = \omega^k + \Delta\omega^{k+1}, \quad (18)$$

$$\Delta\omega^{k+1} = \begin{cases} a^{k+1}\Delta\omega^k, \ agarda \ q(\omega^k) > q(\omega^{k-1}) \\ a^{k+1} \cdot \xi^{k+1}, agarda \ q(\omega^k) \le q(\omega^{k-1}) \end{cases} \quad (19)$$

a^{k+1} – (k+1) qadamning uzunligini xarakterlovchi parametr.

Dissertatsiyaning «**Spam xabarlarni aniqlash jarayoni samaradorligini baholash va amaliyotga tadbiq etish natijalari**» nomli to‘rtinchi bobida elektron pochta xabarlaridan spam xabarlarni aniqlash usullarining samaradorligini baholash hamda spam xabarlarni aniqlashni dasturiy vositasining funksional strukturasi va ishlash prinsipi hamda joriy etishdan olingan tajriba-hisoblash natijalari keltirilgan.

Birinchi paragrafda Spam xabarlarni aniqlashda modifikatsiyalangan tayanch vektor usulining samaradorligi uchta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha baholangan (1-jadval). Bunda elektron pochta spami (EPS), ijtimoiy tarmoqlardagi spam (ITS), forumlardagi spam (FS), saytlardagi sharhlar orqali tarqatiladigan spam (SSHTS), kataloglar va byulletenlar ko‘rinishidagi spam (KBS), sms spamlar (SS).

1-jadval

Spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektor usulini testlash natijalari

Spam xabar turlari	Jami spam xabar soni	Aniqlangan spam xabarlar %	Aniqlanmagan spam xabarlar %	Tizimning yolg‘on ishga tushishlari %
EPS	1364	97,3	2,1	0,6
ITS	1223	95,4	3,9	0,7
FS	1393	96,3	3,2	0,5
SSHTS	1676	95,1	4,1	0,8
KBS	1128	93,3	6,1	0,6
SS	1410	92,1	7,1	0,8

Spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektor usuliga asoslangan tizimlarni boshqa spam xabarlarni aniqlash tizimlarining samaradorligi bilan solishtirganda olingan natijalar 2 – jadvalda keltirilgan. Bunda spam xabarlarni aniqlashda yuqorida ko‘rsatilgan 3 ta asosiy ko‘rsatgichlar bo‘yicha sinalgan. Shuningdek elektron pochta xabarlarini filtrlashning unumdorligi turlicha bo‘lgan protsessor va grafik protsessorli kompyuterlarda o‘tkazilgan testlash natijalari keltirilgan(3-jadval).

Ikkinchi paragrafda spam xabarlarni aniqlash dasturiy vositasining funksional strukturasi keltirilgan(6-rasm).

Axborot xavfsizligiga mas’ul xodimlariga ma’lumki, elektron pochta xabarlarini filtrlab ulardan spam xabarlarni aniqlab olish imkonini beradigan dasturiy vositalardan bugungi kunda deyarli barcha tashkilotlarda keng foydalanib

kelinmoqda. Ishlab chiqilgan algoritmlar asosida yaratilgan dasturiy vosita faqat spam xabarlarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, bunga qo‘shimcha ravishda yana bir qancha vazifalarni bajarish imkonini beradi:

- spam xabarlarni aniqlash;
- spam xabarlarni karantinda saqlab turish;
- spam xabarlarni o‘chirib tashlash;
- xabar jo‘natish;
- xabarlarni qabul qilish va boshqalar.

2-jadval

Spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektorlar usulini samaradorligini baholash natijalari

Spam xabarlarni aniqlash tizimlari	Jami spam xabar soni	Aniqlangan spam xabarlar %	Aniqlanmagan spam xabarlar %	Tizimning yolg‘on ishga tushishlari %
SXAD	1665	96,2	3,4	0,4
AntiSpam Sniper Pro.	1665	94,8	3,1	2,1
Malwarebytes Anti-Exploit Free	1665	93,4	4,4	2,2
Spybot Search & Destroy	1665	92,7	4,8	2,5
Spamhaus	1665	97,1	2,1	0,8

3 – jadval

Elektron pochta xabarlarini filtrlashning unumdorligi turlicha bo‘lgan protsessor va grafik protsessorli kompyuterlarda o‘tkazilgan testlash natijalari

Qurilmaga qo‘yilgan talablar / Elektron pochta xabarlarni filtrlash(EPXF)	Intel core i5 4,4GHz, 16Gb tezkor xotira	Intel Core i7 7900K, 64Gb tezkor xotira	Intel Core i9 7900K, 64Gb tezkor xotira, GTX 1080 TI grafik protsessor
SXAD (EPXF)	0,7 s	39 ms	11 ms
MailWasher Free (EPXF)	1,5 s	65 ms	26 ms
SpamBytes (EPXF)	0,9 s	43 ms	13 ms
Spamihilator (EPXF)	0,8 s	41 ms	12 ms
Spamfence (EPXF)	1,2 s	49 ms	15 ms

Uchinchi paragrafda tashkilot elektron pochta tizimini spam xabarlardan himoyalashning dasturiy vositasini amaliyotga tatbiq etish natijalari keltirilgan.

SXAD dasturining asosiy maqsadi viruslar, xakerlik hujumlari va spamlardan keng qamrovli himoya asosida tashkilotning elektron pochtasini himoya qilish bilan bir qatorda murakkab yondashuv yordamida kiruvchi xatlarni tahlil qilishdan iborat.



6-rasm Spam xabarlarni aniqlash dasturiy vositasining funksional strukturasi

Tashkilot va korxonalarni elektron pochta manzillarini filtrlash va ulardan spam xabarlarni aniqlab olishning dasturiy vositasi «Kiberxavfsizlik» markazi davlat unitar korxonasida, «UZINFOCOM Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator» ma’suliyati cheklangan jamiyatida va «ASR KABEL» ma’suliyati cheklangan jamiyatida joriy etilgan va natijalar quyida keltirilgan.

«Kiberxavfsizlik» markazi davlat unitar korxonasida elektron pochta xabarlarini filtrlash, spam xabarlarni aniqlash va ularni bloklash uchun ishlab chiqilgan dasturiy vosita 4673 ta elektron pochta xabarlarini filtrlab, ulardagi 1364 ta spam xabardan 1327 tasini 97.3% aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini berdi.

«UZINFOCOM Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator» ma’suliyati cheklangan jamiyatida elektron pochta xabarlarini filtrlash va ulardagi spam xabarlarni aniqlash maqsadida tajribaviy sinovdan o‘tish jarayonida elektron pochta xabarlaridagi spam xabarlarni aniqlash dasturiy vositasi 3624 ta elektron pochta xabarlarini samarali filtrlab, ulardagi

1465 ta spam xabardan 1431 tasini 97.6% aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini berdi.

«ASR KABEL» ma’suliyati cheklangan jamiyatida elektron pochta xabarlarini filtrlash va ulardagi spam xabarlarni aniqlash hamda bloklash maqsadida sinovdan o‘tish jarayonida elektron pochta xabarlaridagi spam xabarlarni aniqlash dasturiy vositasi 2526 ta elektron pochta xabarlarini samarali filtrlab, ulardagi 1280 ta spam xabardan 1248 tasini 97.5% aniqlik qayd etgan holda aniqlab ularni muvofaqqiyatli bloklash imkonini berdi.

Ishlab chiqilgan dasturiy vositani korxona va tashkilotlarda qo‘llash natijasida olingan natijalar asosida shuni aytish mumkinki, bitta foydalanuvchining etiborsizligi natijasida tashkilotning axborot tizimiga zarar yetishi va uning natijasida pochta serverini ish faoliyatiga salbiy tasir yuklanishi yoki tashkilotning ma’lumotlar bazasidan kerakli ma’lumotlarni chiqib ketishi, o‘chirilishi yoki o‘zgartirilishi kabi oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Bir qaraganda oddiy ko‘ringan spam xabarlarni vaqtida aniqlab bartaraf etilmasa, uning oqibatlari asosida tashkilotning boshqa tizimlariga kirishga yo‘l ochiladi, chunki biror tashkilot yo‘qki elektron pochta manziliga ega bo‘lmagan. Elektron pochta ana shunday barcha tashkilotlarda mavjud bo‘lgan va butun dunyo bo‘yicha ma’lumotlar almashish imkonini beradigan yagona texnologiyalaridan biridir. Shuning uchun ham ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun uning xavfsizligiga ham alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA

«Elektron pochta xabarlarini filtrlash va spam xabarlarni aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish» mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Elektron pochtani filtrlash usullari turli xususiyatlar, parametrlar va muhitlar bo‘yicha qiyosiy tahlil qilindi va tayanch vektorlar usulining samaradorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Spam xabarlarining barcha ko‘rinishlari uchun umumiy bo‘lgan kerakli mezonlarni tanlab olish natijasida filtrlash tizimining ortiqcha yuklanishlari sonining kamayishiga erishildi.
2. Tashkilotdagi mavjud bilimlar bazasini taqsimlash orqali yangi turdagi spam xabarlarni aniqlash imkonini beradigan yangi bilimlar asosida real vaqt rejimida bilimlar bazasini to‘ldirish algoritmi ishlab chiqildi. Natijada bilimlar bazasida bilimlar soni keskin ortib ketgan holda yuborilgan so‘rovlarga javob qaytarish vaqtining 1 ms kamayishiga erishildi.
3. Spam xabarlarni aniqlash tizimining, ko‘p darajali bilimlar bazasi iyerarxiyasiga mos holda, uch bosqichdan iborat elektron pochtadagi hujjatlarni filtrlash algoritmi ishlab chiqildi. Natijada elektron xabarni spam xabarga tegishli ekanligi holatining yakuniy ehtimolligini baholash imkoniga ega bo‘lindi.
4. Spam xabarlarni aniqlashning modifikatsiyalangan tayanch vektorlar usuli va algoritmi ishlab chiqildi. Natijada F klassifikator asosida hujjatlarni aniqlangan tavsifi asosida ikki toifaga ajratish imkoniyatiga erishildi.

5. Modifikatsiyalangan tayanch vektorlar usuli asosida ishlab chiqilgan spam xabarlarni aniqlashning dasturiy vositasi 97.3% aniqlikni ko‘rsatdi.

6. Ishlab chiqilgan spam xabarlarni aniqlash dasturi yordamida elektron pochta xabarlaridan spam xabarlarni aniqlash uchun ketgan vaqt 11 ms ni tashkil etdi. Bu boshqa dasturiy vositalarga qaraganda 1 ms tezroq ekanligi aniqlandi.

Taklif etilgan usullar asosida ishlab chiqilgan elektron pochta xabarlarini filtrlash va ulardan spam xabarlarni aniqlab olishning dasturiy vositasi tashkilotdagi axborotni himoyalash uchun foydalaniladigan himoya tizimining yolg‘on ishga tushish ehtimolini 1.4 barobarga kamaytirishga hamda ishlash tezligini 1.1 barobarga ortishiga va elektron pochta xabarlarini 24/7 rejimida himoyasini ta’minlash imkonini beradi. Spam xabarlarni aniqlashda bundanda yaxshiroq samaradorlik ko‘rsatkichiga erishish uchun spam xabarlar bazasini doimiy yangilab borish bo‘yicha tavsiyalar keltirildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 13/30.12.2019.T.07.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

ҲАЙДАРОВ ЭЛШОД ДИЛШОД УГЛИ

РАЗРАБОТКА АЛГОРИТМОВ ФИЛЬТРАЦИИ СООБЩЕНИЙ ЭЛЕКТРОННОЙ ПОЧТЫ И ОБНАРУЖЕНИЯ СПАМ СООБЩЕНИЙ

05.01.05 – Методы и системы защиты информации. Информационная безопасность.

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2022.4.PhD/T3425.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Хамдамов Рустам Хамдамович** доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Керимов Камил Фикратович** доктор технических наук, доцент
	Насруллаев Нурбек Бахтиёрович доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**«UNICON.UZ» - центр научно-технических и маркетинговых исследований**

Защита диссертации состоится «__» _____2023 года в __ часов на заседании Научного совета DSc. 13/30.12.2019.T.07.02 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43; e-mail: tuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер №___). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-70).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2023 года.
(протокол рассылки №__от «___» _____ 2023 года.)

Б.Ш. Махкамов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Э.Ш. Назирова
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

С.К. Ганиев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Электронная почта - единственная система обмена электронными сообщениями, признанная всеми странами мира. Именно поэтому количество атак на электронную почту с каждым годом увеличивается. Основными организаторами этих атак являются спам-сообщения. По данным Лаборатории Касперского, в первом квартале 2021 года количество неизвестных звонков и спам-сообщений в государственные организации составило 70% всех входящих звонков и сообщений. В этом направлении в зарубежных странах, в том числе в Российской Федерации, США, Южной Корее, Японии, Малайзии, Китае и других странах ведутся исследования по разработке методов и алгоритмов фильтрации сообщений электронной почты и выявлению из них спам-сообщений, а также совершенствованию систем защиты почтовых серверов компании.

В настоящее время весьма актуальными считаются исследования и разработки, направленные на совершенствование методов и алгоритмов фильтрации сообщений электронной почты и выявление спам-сообщений, а также выявление спам-сообщений с использованием интеллектуальных методов. В связи с этим одной из важных задач является разработка методов выявления спам-сообщений на основе списков и лингвистики. В то же время необходимо разработать механизм защиты с использованием интеллектуальных методов для защиты электронной почты, когда знание новых сообщений является неполным в процессе фильтрации электронной почты, или когда подпись спам-сообщений недоступна, наряду с неопределенностями в текущей базе спам-сообщений.

В нашей республике органами государственного и хозяйственного управления осуществляются комплексные мероприятия, направленные на фильтрацию сообщений электронной почты и выявление из них спам-сообщений.

В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определено, что «…основные направления обеспечение кибербезопасности интернет-пространства доменной зоны «UZ» и комплексные задачи защиты систем электронного правительства, энергетики, цифровой экономики и другие направления, связанные с важной информационной инфраструктурой, отмечены значимыми». При реализации этих задач одной из важных является использование современных систем фильтрации сообщений электронной почты и выявление из них спам-сообщений, а также использование современных систем защиты электронной почты.

Реализация поставленных задач в Указах Президента Республики Узбекистана «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» №УП-60 от 28 января 2022 года, «О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций» №УП-5349 от 19 февраля 2018 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистана «О мерах по совершенствованию системы контроля за

внедрением информационных технологий и коммуникаций, организации их защиты» № ПП-4024 от 21 ноября 2018 года, «О дополнительных мерах по совершенствованию системы контроля за внедрением информационных технологий и коммуникаций, организации их защиты» № ПП-4452 от 14 сентября 2019 года, и в других нормативно-правовых документах, касающихся данной деятельности, служат задачами для данного диссертационного исследования в определенной мере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологии IV. «Информатизация и развитие инфокоммуникационных технологий».

